XALQ DEPUTATLARI QASHQADARYO VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 4-dekabr VII-18-201-4-0-K/25 Qashqadaryo viloyati

Nishon tumani “Yagona boshqaruv kompaniyasi” masʼuliyati cheklangan jamiyatining Nishon tumani Nuriston shaharchasi abonentlariga ichimlik suvi taʼminoti va oqova suv xizmatlari uchun taklif etilayotgan narxlari (tariflari) toʻgʻrisida

Oʻzbekiston Respublikasining 2022-yil 22-iyul kunidagi “Ichimlik suv taʼminoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish toʻgʻrisida”gi OʻRQ-784-sonli Qonuni, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-sentabrdagi “Ichimlik suvi taʼminoti va oqova suv tizimini yanada takomillashtirish hamda sohadagi investitsiya loyihalari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PF-6074-sonli Farmoni ijrosini taʼminlash maqsadida hamda Nishon tumani “Yagona boshqaruv kompaniyasi” maʼsuliyati cheklangan jamiyatining 2025-yil 23-oktabrdagi 274-sonli, viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 22-oktabrdagi 01-20-10/05-38/2686-sonli xatlarini inobatga olib, Oʻzbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari viloyat Kengashi

QAROR QILADI:

1. Nishon tumani “Yagona boshqaruv kompaniyasi” maʼsuliyati cheklangan jamiyati direktori O.Omonovning Nishon tumani “Yagona boshqaruv kompaniyasi” masʼuliyati cheklangan jamiyatining Nishon tumani Nuriston shaharchasi abonentlariga ichimlik suvi taʼminoti va oqova suv xizmatlari uchun taklif etilayotgan narxlari (tariflari) yuzasidan hisoboti va takliflari maʼlumot uchun qabul qilinsin.

2. Nishon tumani “Yagona boshqaruv kompaniyasi” masʼuliyati cheklangan jamiyatining Nishon tumani Nuriston shaharchasi abonentlariga ichimlik suvi taʼminoti va oqova suv xizmatlari uchun taklif etilayotgan narxlari (tariflari) **ilovaga** muvofiq maʼqullansin.

3. Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2025 yil 25-apreldagi “Nishon tumani “Yagona boshqaruv kompaniyasi” mas’uliyati cheklangan jamiyatining ichimlik suvi taʼminoti va oqova suv xizmatlari uchun taklif etilayotgan narxlari (tariflari) to‘g‘risida”gi VII-10-70-4-0-K/25-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

4. Ushbu qaror bajarilishini nazorat qilish va ijrosini taʼminlash xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari boʻyicha doimiy komissiyasi raisi O.Ravshanov va viloyat hokimining oʻrinbosari M.Azizov zimmasiga yuklatilsin.

5. Ushbu qaror ommaviy axborot vositalarida eʼlon qilingandan keyin oʻn besh kun oʻtgach kuchga kiradi.

6. Ushbu qaror rasmiy veb-sayt va ommaviy axborot vositalarida eʼlon qilinsin.

Kengash raisi **XUSHMURODOVA ISMIGUL BERDIMURODOVNA**

Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati
Kengashining
2025-yil 4-dekabrdagi
VII-18-201-4-0-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Nishon tumani “Yagona boshqaruv kompaniyasi” MCHJ tomonidan Nuriston shaharchasida joylashgan aholi, budjet va ulgurji tashkilotlar uchun taklif etilgan 1 m^3 ichimlik suvi va oqova suv xizmatlari narxlari (tariflari)

T/R	Xizmat turlari	Istemol turi	O‘lchov birligi	Amaldagi narxi QQS siz (so‘mda)	Yangi narx QQS siz (so‘mda)
1.	Ichimlik suvi	aholi iste′molchilariga	1 m^3	1 700	1 900
		budjet tashkilotlariga	1 m^3	3 500	4 500
		ulgurji iste′molchilariga	1 m^3	6 000	7 200
2.	Oqova suv	aholi iste′molchilariga	1 m^3	1 000	1 100
		budjet tashkilotlariga	1 m^3	1 500	2 000
		ulgurji iste′molchilariga	1 m^3	2 500	5 800